

**SHAROF BOSHBEKOV ASARLARIDA NOVERBAL VOSITALARDAN
FOYDALANISHNING SOSIOPRAGMATIK XUSUSIYATLARI**

Mustafayeva Nodira Abdujalilovna

O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti

O'zbek va chet tillari kafedrasi o'qituvchisi

nodira197605@gmail.com Tel:(99) 488-41-49

Annotatsiya: Maqlada insonlarning bir-birlari bilan muloqot jarayonida fikrlarini jestlar, mimika orqali tushunishi to‘g‘isida bo‘lib, jarayon paytida suhbatdoshning positsiyasini aniqroq tushunishini ta‘minlaydi. Jestlar va tana harakatlari tilini bilish nafaqat suhbatdoshni yaxshi tushunish, balki u tomonidan eshitilgan axborot unda qanday taassurot uyg‘otganligini u hali mazkur masala yuzasidan munosabat bildirmasidanoq sezishga yordam beradi.

Kalit so‘zlar: Taassurot, axborot, vosita, mimika, jest, suhbatdosh, emotsiyonal, muloqot, tadqiqot.

Abstract: The article focuses on the understanding of people's thoughts through gestures and facial expressions in the process of communicating with each other and provides a more accurate understanding of the interlocutor's position during the process. Knowing the language of gestures and body movements helps not only to better make on him before he reacts to the issue.

Key words: Impression, information, medium, facial, expression, gesture, interlocutor, emotional, communication, research.

Аннотация: В статье основное внимание уделяется пониманию мыслей людей посредством жестов и мимики в процессе общения друг с другом а также обеспечивается более точное понимание позиции собеседника в ходе этого процесса. Знание языка жестов и телодвижений помогает не только лучше понимать собеседника, но и воспринимать, какое впечатление произвела на него услышанная информация, прежде чем он отреагирует на вопрос.

Ключевые слова: Впечатление, носитель информации, мимика, жест, собеседник, эмоциональность, общение, исследование.

Dunyoda kishilar har xil tushuniladigan turli tipdagи axborotlar bilan o‘zaro muloqotga kirishadi. Fikr ifodalashda og‘zaki nutq yetakchilik qiladi. Oddiy so‘zlashuv jarayonida suhbatdoshlarning his-tuyg‘ulari, jest(odat)lari va manera(holat)lari muhim ahamiyat kasb etadi. Ruhshunoslar ta‘kidlashicha, o‘zaro muloqot jarayonining 60-80% noverbal vositalar va faqatgina 20-40% axborot verbal vositalar yordamida almashiniladi.

Har qanday muloqotning muvaffaqiyati suhbatdosh bilan ishnochli aloqani o‘rnata olishga bog‘liq. Bu faqat siz nimani gapirayotganingizgagina emas, balki o‘zingizni qanday tutayotganingizga ham bog‘liq. Aynan shuning uchun suhbatdoshning manerasi, pozasi va mimikasiga, shuningdek, jestlariga alohida e’tibor qaratish lozim.

Mimika va jestlar tilini tushunish suhbatdoshning pozisiyasini aniqroq aniqlash imkonini beradi. Jestlarni o‘qiy turib, siz qayta aloqani amalga oshirasiz va u ishdagi muloqot jarayonining yaxlitligini ta‘minlaydi, jestlar majmuasi esa bunday aloqaning muhim tarkibiy qismidir. O‘zingiz gapirayotgan axborot qanday qabul qilinayotganligini tushuna olasiz: ma‘qullanyaptimi yoki inkor etilyaptimi, suhbatdosh ochiqmi yoki o‘z qobig‘iga yashiringanmi, o‘z-o‘zini nazorat qilyaptimi yoki zerikyaptimi?

Jestlar va tana harakatlari tilini bilish nafaqat suhbatdoshni yaxshi tushunish, balki u tomonidan eshitilgan axborot unda qanday taassurot uyg‘otganligini u hali mazkur masala yuzasidan munosabat bildirmasidanoq sezishga yordam beradi. Boshqacha aytganda, bunday

so‘zsiz til sizni holatni o‘zgartirish yoki o‘zgartirmaslik bo‘yicha, natijaga erishish uchun biror chora qo‘llash zarurligi bo‘yicha ogohlantirishi mumkin.

Sheriklar, suhbatdoshlar va hamkasblar bilan o‘zaro munosabatlarda muayyan natijalarga erishishni istasangiz noverbal, ya’ni so‘zsiz muloqotning ayrim jihatlarini o‘rganish shart.

Suhbatdoshni holat, mimika va jestlar asosida o‘rganish kinesika sohasiga aloqador. Dunyo bo‘yicha asosiy kommunikasion jestlar o‘zaro farqlanmaydi. Inson xursand bo‘lganida tabassum qiladilar, xafa bo‘lganida xo‘mrayadi. Bosh silkitish deyarli butun dunyoda rozilik yoki tasdiqni ifodalaydi. Yelkani qisish jesti universal jest namunasi bo‘lib, inson nimanidir bilmasligi yoki gap nima haqida ketayotganligini tushunmasligini anglatadi.

Verbal tillar madaniyatga ko‘ra o‘zaro ajralib turganidek muayyan millatning noverbal tili boshqa millatning noverbal tilidan farqlanadi. Nisbatan keng tarqagan jest

o‘zini tutish yaqin yoki taktik aloqadir. O‘zaro muloqot eng avvalo, sherikka nibatan hissiyotlarni ifodalaydi. Qo‘pol va og‘riqli munosabat agressiya va tazyiq bilan kechadi. Mayin va og‘riqsiz jestlar sherikka nisbatan ishonch va simpatiyadan dalolat beradi.

Har qanday uchrashuv va xayrashuvning bevosita atributi qo‘l siqishdir. Ushbu holat axborotga boy bo‘lishi mumkin, ayniqsa, uning intensivligi va davomiyligi. Juda qisqa muddatli va yengil qo‘l siqish befarqlikdan dalolat berishi mumkin. Aksincha, davomli qo‘l siqish hayajondan dalolat beradi. Biroz cho‘zilgan va tabassum hamda iliq nigoh bilan kechuvchi qo‘l siqish do‘stona munosabatni namoyon etadi. Agar qo‘l siqilganda boshqa odamning qo‘li to‘liq qamrab olinsa va kaft pastga qarasa, bu hukmron qo‘l siqishdir. Agar kaft yuqoriga qaratilib, qo‘l uzatilsa, bu bo‘ysunuvchi qo‘l siqishdir. To‘g‘ri, lekin bukilgan qo‘l bilan qo‘l siqilsa, hurmatsizlik belgisidir. Uning asosiy ma’nosi – masofani saqlash va tengsizlik haqida eslatishdir. Barmoq uchlari bilan qo‘l siqish muloqotdagi sherikni o‘ziga qulay masofada saqlash xohishini anglatadi. Ikki qo‘llab qo‘l siqish samimiylik va tuyg‘ularning chuqurligini ifodalaydi. Qo‘l va tana harakatlari inson haqida ko‘p ma’lumotlarni bera oladi. Birinchidan, ularda inson organizmi holati va bevosita emotsiyonal reaksiyalar namoyon bo‘ladi. Bu inson temperamenti haqida xulosa qilish imkonini beradi. Ikkinchidan, reaksiyalar, tana holati va harakatlari inson xarakterining ko‘plab qirralarini ifodalaydi: o‘ziga ishonch, qobiqqa o‘ralganlik yoki erkinlik, ehtiyotkorlik, keskinlik. Uchinchidan, holat va jestlarda inson tomonidan o‘zlashtirilgan madaniy normalar namoyon bo‘ladi. To‘rtinchidan, jest va holatga shartli ramziy ma’nolar yuklatiladi. Shu tariqa ular aniq axborotni uzatishga qodir.

Albert Meyerabian qayd qilganidek, axborot almashinuvi verbal vositalar orqali 7%, ovoz vositalari orqali 38%, noverbal vositalar orqali esa 55% amalga oshadi. Professor Berdvisll kun davomida inson o‘rtacha 10-11 daqiqa davomida gapirishini, har bir gap ko‘pi bilan 2,5 sekund davomida talaffuz qilinishini aniqlagab, axborotning 35%dan kamroq qismi so‘z vositasida, 65%dan ortig‘i esa noverbal muloqot vositalari orqali berilishini qayd qilgan¹.

Ko‘pchilik tadqiqotchilar so‘zlar axborotni uzatish uchun, ayni vaqtida noverbal kanal o‘zaro munosabatlarni “muhokama qilish”da, ayrim hollarda so‘zli muloqot o‘rnida qo‘shilishi haqidagi fikrga qo‘shiladilar. Masalan, ayol kishi erkak kishiga og‘zini ham ochmasdan shunday nigoh bilan qarashi mumkinki, bunda uning munosabati mutlaqo aniq ifodalanadi.

¹ Алберт Мехрабян. [Оғзаки бўлмаган алоқа](#). Чикаго: Алдине-Атхертон, 1972 - ИСБН 0-202-30966-5.

Sharof Boshbekovning “Temir xotin”, “Falakning gardishi” va “ ” asarlarida so‘z bilan ifodalananmagan, noverbal vositalar asosida muloqotga kirishilgan o‘rinlar ko‘plab uchraydi:

1. QO‘CHQOR (hayratda). Xotinmas — ekskovator! (O‘tiradi.)
2. OLIMJON (zerikib). Qo‘chqor aka, televizor-pelevizor ham olibqo‘ymagansiz-a?
3. QO‘CHQOR. Televizorning nima keragi bor? Shunisi yaxshi, ertaroq yotiladi. (Dasturxonga fotiha qilib.) Alomatxon, joysolinganmi?
4. ALOMAT (ish bilan bo‘lib). Ha, solib qo‘yanman.Sukut.
5. OLIMJON (turib). Qorin to‘ydi — g‘am ketdi, rahmat.Endi bir oz ishlasak ham bo‘ladi. (Ketadi.).

QO‘CHQOR (uning ketidan). Odam degan mundoq dam ham olishikerak-da, Olimtoy. Kunduzni ishlagani chiqargan, oq-shomni uxlagani...

Ayrim jestlarning kelib chiqishini ilk jamoatchilik davrlaridan kuzatishimiz mumkin. Irjayish (tishining oqini ko‘rsatish) raqibga tashlanish vaqtida saqlanib qoladi va zamona insoni tomonidan boshqaning ustidan kulganda yoki o‘z nafratini ifodalaganida qo‘llaniladi. Tabassum dastlab tahdid ramzi bo‘lgan, buni 5bugungi kunda esa boshqa do‘stona jestlar uyg‘unligida mammunlik yoki do‘stona munosabatni bildiradi.

Verbal tillar bir-biridan madaniyatga ko‘ra farqlangani kabi bir millatning noverbal tili boshqa bir millatning noverbal tilidan ajralib turadi. Muayyan bir jest ma’lum bir millat tomonidan umumqabul qilingan bo‘lib, aniq bir talqinga ega bo‘lishi va ayni vaqtda boshqa bir millatda hech qanday ma’no anglatmasligi yoki mutlaqo qarama-qarshi ma’no ifodalashi mumkin.

Tana muloqoti (tana tili, badan tili) – sifatida fikrlar, his-tuyg‘ular, emosiyani ongli ravishda uzatiladigan tananing turli qismlarining pozisiyalari va harakatlarning alomatlari, ya’ni yuz ifodalari, imo-ishoralar, gavda holatlari (pozalar), yurish va boshqalarni ifodalaydi².

Bunday paralingvistik vositalar dastlab 1644 yili Angliyada D.Bulverning “Nutq va muloqot qiluvchi imo-ishora harakatlarini ifodalovchi qo‘lning tabiiy tili va xronologiyasi” nomli asarida tadqiq qilingan.³ Jestlarni so‘zlovchining milliy o‘ziga xosligini hisobga olmay talqin qilish qanday anglashilmovchiliklarga olib kelishi mumkin. Shuning uchun jestlar va tana tilining ma’nosи haqida xulosa chiqarishda oldin insonning milliy mansubligini hisobga olish zarur.

Paralingvistika (yunon tilida “para” – atrofida va “linguistics”– lingvistika so‘zlaridan olingan) – 1) nutqiy aloqada verbal vositalar bilan birga qo‘shimcha axborot berish uchun mo‘ljallangan noverbal (verbal tilga oid bo‘lmagan) vositalarni o‘rganishni o‘z ichiga olgan tilshunoslik bo‘limi; 2) nutqiy muloqotda foydalaniladigan noverbal vositalar umumiyligiga

² Николаева Т. Невербальные средства человеческой коммуникации и их место в преподавании языка // Роль и место страноведения в практике преподавания русского языка как иностранного. – М., 1969; Колшанский Г. Паралингвистика. – М.: Наука, 1974; Конецкая В. Социология коммуникации: учебник. – М., Междунар. ун-т бизнеса и управления, 1997; Нурмонов А. Танланган асарлар. 1-жилд. – Т.: Академнашр, 2012; Сайдхонов М. Алоқа-аралашув ва имо-ишоралар. – Т.: Фан, 2008; Алиев И. Педагогика ва психология. – Т., 2012.

³ Басова А., Егоров С. История сурдопедагогики. – М., 1984. – С. 21.

aytiladi⁴. Tilshunoslikning o‘zaro aloqa-aratashuvda imo-ishora, mimika, nutq vaziyati kabi omillarni o‘rganuvchi sohasi⁵..

Fransuzlarning jestlar tili ancha ekspressiv (bo‘yoqdir). Fransuz nimadandir g‘ayratlansa, uchta barmog‘ining uchini birlashtirib, lablariga olib boradi, iyagini yuqori ko‘tarib, havoga nafis o‘pichni yuboradi. Agar u ko‘rsatkich barmog‘i bilan burnining asosini qashlasa, “bu yerda bir gap bor”, “bu odamga ishonib bo‘lmaydi” deb ogohlantirgan bo‘ladi.

Ba’zi manbalarda til munosabatlarining bunday elementlarini *tana tili* deb nomlash uchraydi⁶.

Italiyalikning ko‘rsatkich barmog‘i bilan burnini urishi “Ehtiyyot bo‘ling, oldinda xavf bor, ular nimanidir mo‘ljallagan” degan ma’noni anglatadi. Ammo shu jest Gollandiyada “Men mast” yoki “Sen past”, Angliyada esa konspiratsiya va sirlilikni anglatadi.

Barmoqning yengil u yoqdan bu yoqqa harakatlantirilishi AQShda, Italiyada yengil tanbehni, tahdid yoki nasihatni anglatishi mumkin. Gollandiyada ushbu jest rad etishni anglatadi. Agar ushbu jest bilan hukm chiqarilmoqchi bo‘lsa, ko‘rsatkich barmoqni boshning yonida harakatlantirish kerak. Biz muloqot jarayonida o‘ng yoki chap qo‘lga ahamiyat bermaymiz. Ammo Yaqin Sharqda ehtiyyot bo‘ling: pul yoki sovg‘ani chap qo‘l bilan birovga uzata ko‘rmang. Bu orqali siz suhbатdoshingizni haqorat qilgan bo‘lasiz.

O‘zbeklarda ham boshqa xalqlarda qo‘llanilmaydigan bir qancha tana harakatlari orqali fikr ifodalash odatlari bor:

Qo‘lni ko‘ksiga qo‘yish. Asosan, minnatdorlik belgisi, bundan tashqari, mammunlik, uzr so‘rash, iltimos kabi so‘zsiz ifodalanadigan ma’nolarini ifodalab keladi.

Ovoz chiqarib salom berilganda ham doimo qo‘l yurak tomonda, ko‘krak ustida bo‘ladi. Bu boshqa millatlarda boshqacha.

Boshni oldinga irg‘ish. Oldiga chaqirish, tushunganini anglatish ma’nolarini anglatadi. Masalan, hindlarda boshni ikki yonga qimirlatsa, shu ma’no anglashiladi.

Umuman har qanday madaniyatda nosamimiylit jestlari odatda chap qo‘l bilan bog‘liq, negaki o‘ng qo‘l “madaniylashgan”, u kerak ishni qiladi, chap qo‘l esa sohibining sirlarini oshkor etib, xohlaganini qiladi. Shuning uchun agar suhbat jarayonida chapaqay bo‘lmagan suhbатdosh chap qo‘l bilan jestlar qilsa, katta ehtimol bilan u o‘ylayotgan narsasini gapirmayapti yoki sodir bo‘layotganlarga nisbatan salbiy munosabatda.

Ba’zan jestdagi arzimas o‘zgarish ham uning ma’nosini butunlay o‘zgartirib yuborishi mumkin. Turli madaniyatli xalqlarida suhbатdoshlar o‘rtasidagi optimal masofa xususida turlicha tasavvurlar mavjud. Masalan, nemislar 60 santimetrdan yaqin bo‘lmagan masofada turib, suhbat olib boradilar. Arablar uchun esa bu masofa muloqot uchun juda uzoq.

O‘zaro notanish arab va nemisning suhbat jarayonini kuzatsangiz, birinchisining tobora yaqinlashishga intilishini, ikkinchisining esa o‘zining olib qochishini ko‘rishingiz mumkin. Bu o‘rinda nemisning arab xususidagi taassurotlarini bilmoqchi bo‘lsangiz, uning bosim o‘tkazuvchilagini, yaqin aloqalar o‘rnatishga da‘vogarlik qilayotganligi aytadi. Arab esa o‘z suhbатdoshini kibrli va odamovi sifatida baholashi mumkin. Ikkalasi ham bu o‘rinda xato mulohaza qiladi, zero har ikkalasi uchun ham maqbul muloqot masofasi buzilgan.

⁴Ярцева В. Большой энциклопедический словарь. 2-е издание. – М.: Большая Российская энциклопедия, 1998. – С. 367.

⁵Хожиев А. Тилшунослик терминларининг изохли лугати. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси Давлат илмий нашриёти, 2002. – Б. 79.

⁶Момынова Б., Бейсембаева С. Қазақ тіліндегі ым мен ишараттың қазақша-орысша түсіндірме сөздігі. – Алматы: Қазақ университеті. 2003. – Б. 3.

Yaponlar suhbatlashganda suhbatdoshining bo‘yniga qaraydilar. To‘g‘ri nigoh ular fikricha, odobsizlikdir. Boshqa xalqlarda esa, masalan, arablarda suhbatdoshning yuziga qarash shart. Bolalarga yoshlikdan yuziga qaramay gaplashish odobsizlik deb o‘rgatishadi. O‘zbeklarda ham farzandlar odatda, ota-onasining ko‘ziga tik qaramasdan yerga qaragan holatda suhbatlashadi. Xususan, ayol kishi ham nomahram (eridan boshqa) kishilarning ko‘ziga qaramasdan suhbatlashadi.

Insonning kiyimi (rangi va uslubi) noverbal muloqot usullaridan biri bo‘lishi mumkin, sababi u insonning moddiy ahvoli va kayfiyati xususida axborot bera oladi. Masalan, qizil rangli kiyimdagи inson kuchli, faol va impulsiv shaxs, hayotdagi lider va kurashchi sifatida taassurot qoldirishi mumkin. Sariq kiyimdagи inson muloqotga kirishuvchan, intellektual, o‘zgarishlarga tayyor. Yashil kiyimdagи shaxs –tuganmas quvvat va irodaga ega mulohazakor professional. Ko‘k rangdagi –oldida turgan muammoni hal qilishga qodir dono siyosatchi. Siyoh rangli kiyimdagи inson yaxshi zehn va ijodiy qobiliyatlarga ega inson.

Rangga munosabat va uni qabul qilish har bir mamlakatda turlicha bo‘lib, hatto milliy-madaniy o‘ziga xoslik ham mavjud. Chunonchi uni ham ishbilarmon muloqotida hisobga olish zarur.

U yoki bu mamlakatdagi sevimli ranglar, odatda, milliy bayroqda aks etadi. Amerikada qizil rang muhabbat, sariq – rivojlanish, yashil – umid, havorang – sadoqat, oq – poklik, tinchlik, xotirjamilik, qora esa murakkablik va favqulodda vaziyat ramzi sifatida anglanadi. Avstriyada yashil rang nisbatan mashhur; Bolgariyada to‘q yashil va malla rang; Pokistonda –zumrad, yashil, Gollandiyada esa olovrang va havorang. Sharqqa yaqinlashgan sari rang ramziyligiga ko‘proq e’tibor berib boriladi. Masalan, Xitoyda qizil rang sahiylik va jasoratni, qora- haqgo‘ylikni, oq esa yevropaliklar tomonidan poklik va avliyolik ramzi sifatida umumqabul qilinganidan farqli o‘laroq yolg‘on va insofsizlik sifatida assosiatsiyalanadi.

O‘zbeklarda ham moviy rang – tinchlik va osoyishtalik, yashil rang –yasharish va tiriklik ramzi; ayrim holatlarda sariq – ayriliq ramzini ifodalaydi. Qizil rangni ko‘pincha ta’qiq ma’nosida yoki hashamat ma’nosida tushunadi. Qora rang o‘zbeklarda motam ma’nosini ifodalasa-da, ayrim holatlarda ulug‘vorlikni ham anglatadi.

Erkaklarning ish kiyimiga qo‘yiladigan talab deyarli barcha mamlakatlarda bir xil: qora yoki kulrang kostyum, oq yoki ko‘k ko‘ylak, tonga ko‘ra bo‘yinbog‘, yaltiratib tozalangan tuflı, qimmat soat... Biroq ishbilarmon ayolga nisbatan bu qoidalar amal qilmaydi, har bir davlatda har bir tadbirdor ayol qanday ko‘rinishi kerakligi borasida o‘z tasavvurlari bor.

Ishbilarmon ingliz ayollari ular haqidagi o‘ta rasmiyatichi degan fikrdan biroz farq qiladilar, biroz qat‘iy etiket qoidalariga rioya qiladilar. Ishbilarmonlik uchrashuvlarida ular keskin bo‘lmagan ranglardagi kostyumni afzal ko‘radilar. Imkon qadar kamroq yuvelir buyumlari, yaxshi makiyaj.

Nemis ayollar libosda biroz konservativ. Sokin, biroz zerikarli klassikani, tinch rangli gammani afzal ko‘radilar. Qat‘iy ishbilarmonlik turmagi. Minimum taqinchoqlar.

Fransuz ayollar liboslarni yaxshi ajratadilar. Klassikaga rioya qilsalarda, quruq emas, “muayyan sharm bilan”: elegant kostyum yoniga yengil sharfcha, modaga mos, did bilan tanlangan to‘g‘nag‘ich...

Italian ayolları yuqori sifatlı ve nozik didli ekspressiv ve ekstravagant ishbilarmonlik kiyimlerini tanıtladılar. Qimmatbaho taqinchoqlar, yorqin ve iliq ranglar palitrası.

Ishbilarmon ispan ayollar ko‘pincha libosda oq va qoraning yoki qora va qizilning oltin bilan bezalganini ishlataladilar. Grek ayollariga esa pastel tonlaridagi oqib turuvchi ishbilarmonlik qomati yaqinroq.

O‘zbek ishbilarmon ayollari ham milliy ruh aralashgan zamonaviy qiyofada kiyinadilar. Rasmiy doirada faoliyat ko‘rsatadigan ayollar to‘q ko‘k va qora rangni tanlaydi. Taqinchoqlar ham minimum, hashamatli bo‘lmagan darajada tanlanadi.

Xullas, har bir mamlakatda noverbal muloqot meyor va qoidalari haqida o‘z tasavvurlari mavjud. Bu o‘ziga xosliklarni bilish nafaqat xatolarning oldini olish, balki suhbatdoshda yaxshi taassurot qoldirish hamda u bilan uzoq muddatli hamkorlik munosabatlarini o‘rnatish imkonini beradi

Adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh. M. Adabiyot va san’at, madaniyatni rivojlantirish – xalqimiz ma’naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevoridir // Xalq so‘zi, 2017-yil 4-avgust.
2. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz // I jild. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017.
3. Azizov O. Tilshunoslikka kirish. – Toshkent: Fan, 1996.
4. Aliqulov T. Polisemiyalarining hosil bo‘lishi haqida // O‘zbek tili va adabiyoti. –Toshkent, 1963. – 6-son.
5. Xolmurodova M. Ta’lim muassasalarida “Axborot va murabbiylit soati”ni o‘tkazishning samaradorligini ta’minalash asoslari // O‘zbekistonda raqs san’ati rivoji va istiqbollari: ijtimoiy jarayonlar. 1-Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi to‘plami. 2018. – B. 12-26.
6. Xolmurodova M. Milliy ma’naviyatning rivojlanishida xalq og‘zaki ijodining o‘rnini (maqollar misolida) // Markaziy Osiyo xalqlarining madaniy hamkorlik istiqbollari. Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – Toshkent, 2020. – B. 447-454.
7. Mengliyev B.Til yaxlit sistema sifatida:MonografiY. – Toshkent: Nihol, 2010.
8. Mirzayev M. va boshq. O‘zbek tili. – Toshkent: O‘qituvchi, 1978.
9. Mirzayev M., Usmonov S., Rasulov I. O‘zbek tili. – Toshkent, O‘qituvchi, 1978.